

**SURXONDARYO VILOYATINING ORGANIK DUNYOSI VA YER
(AGROIQLIM) RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA
FOYDALANISH MASALALARI
ОРГАНИЧЕСКИЙ МИР И ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ЗЕМЕЛЬНЫХ (АГРОКЛИМАТИЧЕСКИХ) РЕСУРСОВ
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ
ISSUES OF USING THE ORGANIC WORLD AND LAND (AGRO-
CLIMATIC) RESOURCES OF THE SURKHANDARYA REGION IN
AGRICULTURE**

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi

Mamashev Doston O'ktam o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 401-gurux talabasi

Umarov Shohro'z Yoqaliyevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 302-gurux talabasi

Annotatsiya: Ushbu ish Surxondaryo viloyatining tabiiy-geografik sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va suv resurslaridan foydalanish holati hamda ekologik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, ekin maydonlarining taqsimlanishi, suv ta'minoti, iqlim sharoiti va meliorativ muammolar tahlil qilinadi. Sho'rlanish, yerlarning yaroqsiz holga kelishi, antropogen ta'sirlar natijasida o'simlik turlarining qisqarishi kabi ekologik muammolar ko'tarilib, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati, qishloq xo'jaligi yo'nalishlari, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish bo'yicha qonuniy asoslar yoritilgan. Ish viloyat tabiatini saqlash, biologik xilma-xillikni himoya qilish va barqaror foydalanish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, flora, o'simliklar dunyosi, cho'l zonasi, voha ekotizimi, dorivor o'simliklar, sho'rlanish, qishloq xo'jaligi, melioratsiya, subtropik iqlim, antropogen ta'sir, ekologik muvozanat, tabiiy o'simliklar, madaniy ekinlar, ekin maydonlari, ekologik barqarorlik.

Annotation. This work is devoted to studying the natural-geographical conditions, flora and fauna, land and water resource utilization, and ecological problems of the Surkhandarya region. The research analyzes agricultural sectors, distribution of croplands, irrigation water supply, climate characteristics, and

melioration issues. Ecological problems such as soil salinization, land degradation, and loss of plant species due to anthropogenic impact are highlighted, emphasizing the need for rational use of land and water resources. The work also covers the economic potential of the region, main agricultural directions, natural wealth, and the legal basis for environmental protection. The study focuses on preserving regional nature, protecting biodiversity, and ensuring sustainable use of natural resources.

Keywords: Surkhandarya region, flora, plant world, desert zone, oasis ecosystem, medicinal plants, environmental protection, land resources, water resources, salinization, agriculture, land reclamation, subtropical climate, anthropogenic impact, ecological balance.

Аннотация. Данная работа посвящена изучению природно-географических условий, растительного и животного мира, использования земельных и водных ресурсов, а также экологических проблем Сурхандарьинской области. В исследовании рассматриваются сельскохозяйственные отрасли, распределение посевных площадей, водообеспечение, климатические особенности и вопросы мелиорации. Поднимаются экологические проблемы — засоление почв, деградация земель, сокращение растительных видов под воздействием антропогенных факторов. Подчёркивается необходимость рационального использования земельных и водных ресурсов. Работа также освещает экономический потенциал региона, основные направления сельского хозяйства, природные богатства и законодательные основы охраны окружающей среды. Исследование направлено на сохранение природы региона, защиту биологического разнообразия и обеспечение устойчивого использования природных ресурсов.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, флора, растительный мир, пустынная зона, оазисная экосистема, лекарственные растения, земельные ресурсы, водные ресурсы, засоление, сельское хозяйство, мелиорация, субтропический климат, антропогенное воздействие, экологическое равновесие, естественная растительность, культурные растения, посевные площади.

Kirish. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng boy va rang-barang tabiiy resurslarga ega hududlaridan biri bo‘lib, uning geografik joylashuvi, relyefi va agroiklim sharoitlari qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Viloyat hududi o‘zining noyob flora va faunasi, shuningdek, qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqli unumdor yer maydonlari bilan ajralib turadi.

Surxondaryoning o'simliklar qoplami cho'l, voha, tog' oldi va tog' zonalarida o'ziga xos tarzda shakllangan. Cho'l hududlarida saksovul, qandim, cherkez kabi qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar yetakchilik qilsa, tog' yon bag'irlarida archa, pista, qayin, yong'oq kabi qimmatbaho daraxt turlari uchraydi. Shuningdek, daryo bo'ylarida to'qay o'simliklari keng tarqalgan bo'lib, ular ekologik barqarorlik uchun muhim hisoblanadi.

Viloyat tabiiy sharoitlarining turli-tumanligi unga mos bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmoqlarining shakllanishiga imkon bergan. Bu yerda paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik, pillachilik kabi tarmoqlar yetakchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, Surxondaryo O'zbekistonda eng ko'p ingichka tolali paxta yetishtiriladigan hudud hisoblanadi. Unumdor yerlarning 280 ming gektardan ortig'i qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladi.

Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyatining organik dunyosi, landshaftlari va yer-agroiqlim resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Viloyatning florasi ya'ni o'simliklar dunyosi xo'jalik ahamiyatiga ko'ra cho'l va voha (vodiy) guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Viloyatda cho'l zonasi guruhiga kiradigan o'simlik turlari keng tarqalgan. Surxondaryoning janubiy, janubi-sharqiy qismlarida saksovul, quyonsuyak, qandim (juzg'un), cherkez, choycho'p, yaltirbosh kabi o'simliklar yetakchilik qiladi. Viloyatning g'arbiy, shimoliy g'arbiy qismidagi gipsli, toshloq va qumli yerlarda qizilcha, sassiq kavrak, shuvoq, astragal, isiriq va boshqa o'simlik turlari keng tarqalgan. To'qay o'simliklari viloyatning yirik daryolari bo'yi sohillarida tarqalgan.

Surxondaryo farmatsevtika resurslariga boy, bu yerda respublika dorivor o'simliklarining 35-40 foizi joylashgan [1].

Madaniy o'simliklar asosan viloyatning dehqonchilik qilinadigan zonasida hukmronlik qiladi. Madaniylashgan o'simliklar bilan birga qo'ng'irbosh, shuvoqlar, krestguldoshlar oilalariga kiradigan efemerlar, g'alladoshlar, dukkakdoshlar, murakkabguldoshlar kabi begona o'simliklar ham o'sadi. Har xil mevali va manzarali daraxtlar ham regionda keng tarqalgan. Surxondaryo viloyati o'simliklar dunyosi o'zining xilma xilligi foydali o'simliklari turlarining salmog'i jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatda uchraydigan juda ko'p o'simlik turlari shifobaxsh, dori darmonlik xususiyatiga ega. O'simliklar olamini muhofaza qilish, ularni saqlash maqsadida "O'zbekiston qizil kitobi" tashkil etilgan va unga hozirgi kunga kelib kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlari kiritilgan. Ushbu kitobda mamlakatimiz bo'yicha 163 tur o'simlik kiritilgan. Shundan 73 turi Surxondaryo viloyati hududida uchraydi.

Viloyat hududining hayvonot dunyosi ham o'zining turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Vohamizda 1159 tur hayvonot turi yashashi aniqlangan. Shulardan 826 turi umurtqasiz hayvonlar hayvonlar bo'lsa, 333 turi umurtqali hayvonlarni tashkil etadi. Jahon qizil ro'yxatiga va Respublikamiz "Qizil kitob" iga 70 tur umurtqasiz va umurtqali hayvonlar kiritilgan [2]

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, pillachilik. Tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug'doy va arpa) bilan shug'ullaniladi. O'zbekistonda eng ko'p ingichka tolali paxta Surxondaryo viloyatida tayyorlanadi. Viloyatning tog'oldi tumanlarida bog'dorchilik va tokchilik rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo'y (qorako'l va hisor qo'ylari), echki, yilqi, parranda, quyon boqiladi. Jahon mo'yna va teri auksionlarida juda qadrlanadigan "Surxon suri" qorako'l terisi yetishtiriladi.[1]

Dehqonchilikda foydalanadigan yerlar maydoni 284,3 ming ga, shundan sug'oriladigan yerlar 271,6 ming ga, shu jumladan, 120,8 ming ga yerga paxta, 129,7 ming ga yerga don ekinlari, 9,1 ming ga yerga sabzavot, 1,8 ming ga yerga poliz, 5,5 ming ga yerga kartoshka, 16,2 ming ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. 33,5 ming ga yer ko'p yillik daraxtzorlar, 12,7 ming ga yer mevazor, 5,2 ming ga yer tutzor, 15,1 ming ga yer tokzorlar bilan band. 854,2 ming ga yerni yaylovlar egallagan. Yerning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida kollektordrenaj tarmoqlari qurilgan.

Viloyat hududining yer maydonining 5 foizga yaqini o'rmon bilan qoplangan bo'lib, biologik zaxiralari orasida qimmatli ozuqabop va shifobaxsh o'simliklardan, pista, bodom, shifobaxsh giyohlar va boshqalar ko'paytiriladi.

Janubiy qismi keng qumliklar bilan qoplangan. Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o'rtacha temperatura 16°—18°. Iyulning o'rtacha temperaturasi 28°.—32°, yanvarniki 2,8°—3,6°. O'zbekistonda eng issiq temperatura ham shu viloyat hududida kuzatilgan (1914-yil 21 iyunda Termizda 49,5° issiq bo'lgan). Ba'zi yillari qish ancha sovuq (-20° va hatto undan ham past). Yil davomida bulutsiz kunlarning ko'p bo'lishi va quyosh nurining tik tushishi effektiv temperaturalar yig'indisi yuqori bo'lishiga olib keladi. 10° dan yuqori temperaturali kunlar tekislik qismida 290— 320 kun davom etadi. Bu esa viloyatda eng issiqsevar ekinlar (shakarqamish, ingichka tolali paxta) va mevalar yetishtirishga imkon beradi. Viloyat tog'lar orasidagi berk botiqda joylashganidan bu yerda yog'in kam. Viloyatning janubiy tekisliklarida yiliga 130— 140 mm, Hisor tog'lari yon bag'irlarida 445—625 mm yog'in yog'adi. Yog'inning asosiy qismi qish va bahorda tushadi. G'arbiy, janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy shamollar ko'p esadi. Viloyatning janubi-sharqiy qismida esadigan Afg'on shamoli iqlimga salbiy ta'sir etadi. Tog' qor va muzliklaridan, yog'indan

to'yinadigan bu suv tanqisligi kuzatiladi. Yer osti (artezian) suvlaridan tobora keng foydalanilmoqda. 1957—1958 yillarda Uchqizil, 1959— 1962 yillarda Janubiy Surxon va Degrez suv omborlari, Jarqo'rg'on gidrotuguni qurildi. Hazorbog', Dayto'lak, Qumqo'rg'on, Zang kanallari, Sherobod, Amu-Zang mashina sug'orish kanallari barpo etildi.

Viloyatning tuprog'i tekisliklarda taqirsimon va sho'rxok och bo'z tuproklar, tog' yon bag'rida turli xil bo'z tuproqlar. O'simliklar dunyosi ham tabiiy sharoiti bilan bog'liq. Janubidagi ekin ekilmaydigan qumloq joylarda qandim, oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh, yantoq, butasimonlar; daryo bo'ylarida yulg'un, jiyda, turang'il, terak, savag'ich, qiyog, qamish; adir va tog'larning pastki yon bag'irlarida bir yillik efemerlar (lolaqizg'aldoq, nixatak); 1200–2500 m balandliklarida efemerlar bilan birga archa, pista, qayin, tol, yongoq, olma, zarang o'rmonlari uchraydi. Bobotog' tizmasi yon bag'irlarida respublikaning eng yirik tabiiy pistazorlari joylashgan. Baland tog' zonasi subalp va alp o'tloklari bilan band. Hayvonot dunyosi ancha boy: buri, tulki, chiyabo'ri, ayiq, jayran, qobon, yovvoyi echki, arhar, to'qaylarda bug'u, to'qay mushugi, kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq, ko'rsichqon, gekkon kaltakesagi, ko'zoynakli ilon (kobra), o'q ilon, jayra, qushlardan ular (tog' kurkasi), qirg'ovul, mayna, qaldirg'och, g'oz, o'rdak, so'fito'rg'ay, chil, kaklik bor. Daryo va suv omborlarida har xil baliq ko'p.

Surxondaryo viloyati tabiati xilma xil, o'simliklar va hayvonot dunyosiga boy va turli-tuman hisoblanadi. Viloyatimizda 1646 ta o'simliklar turi uchraydi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga oid bo'lgan ko'plab qonun va qarorlar qabul qilingan.

Sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligining jadal sur'atlar bilan rivojlantirilishi tabiiy hududlarning keng miqyosda o'zlashtirilib, qishloq xo'jaligi muomalasiga kiritilishi natijasida tabiatda yuzaga kelgan ekologik muvozanat buzildi. Natijada, ko'plab o'simlik turlarining yo'qolib ketishi xavfi tiklab bo'lmas darajaga kelib qoldi. Bugungi kunda har qanday turning insonlarning tabiatga antropogen ta'sirlari tufayli, yo'qotilishi ularning yo'q bo'lib ketishiga olib kelmoqda. Yovvoyi o'simliklar turlari qishloq xo'jaligida ekiladigan madaniy navlarni barpo etilishda asosiy manba hisoblanadi.

Yer insonning yer yuzasida yashab qolishi va farovonligi uchun ham barcha quruqlikdagi ekotizimlarni saqlash uchun ham muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Yer resurslariga bo'lgan talabning ortib ketishi, oziq-ovqat ekinlarini va yer resurslarini sifat va miqdorining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha haydaladigan yerlarning 16 % i keskin tanazzulga uchragan va ushbu holatning asosiy sababi aholi sonining ortishi hamda yer resurslariga bo'lgan talabning ortib borishidir (FAO ma'lumotlari).

Surxondaryo viloyati aholisi 2743 ming kishini tashkil qiladi. Viloyat mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash sanoati tarmoqlarida yuqori o'rinlarni egallaydi. Viloyatning jami yer maydoni 2009911 gektarni tashkil etadi. Qishloq xo'jalik ekin maydonlari 278124 gektar bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlar 238632 gektar, lalmi yerlar 39 492 gektar, holati yomon yerlar 19744 gekratni tashkil etadi (1 jadval) [4]

1-jadval.


**Surxondaryo viloyati tumanlari bo'yicha bo'yicha qishloq xo'jaligi
yerlarining taqsimlanishi (01.01.2024)**

T/r	Tumanlar nomi	Umumiy maydoni	Ekin yerlar			
			Jami	jumladan		yomon holatli
				suvli	lami	
1	Angor	38731	15535	15535	0	1806
2	Bandixon	68424	13373	13318	55	1653
3	Boysun	325307	20648	1982	18666	262
4	Denov	81933	24324	21738	2856	983
5	Jarqo'rg'on	116198	19700	19700		3268
6	Qiziriq	38788	24078	24078		1038
7	Qumqo'rg'on	213752	18826	18784	42	1099
8	Muzrabot	73923	33321	33321		1197
9	Oltinsoy	56832	12593	9825	2768	655
10	Sariosiyo	384638	12721	8935	3786	35
11	Termiz tumani	83444	11930	11930		2520
12	Uzun	163165	15094	10808	4286	874
13	Sherobot	272785	40375	33464	6911	3769
14	Sho'rchi	86202	15331	15209	122	585
15	Termiz shahri	4274	365	365		
16	Denov shahri	1515				
Jami		2009911	278124	238632	39492	19744

(Surxondaryo viloyat yer kadastr bashqarmasi 2024 yil 1-yanvar)

1- rasm.

Surxondaryo viloyati jami ekin maydonlari



*Surxondaryo viloyat yer kadastr bashqarmasi ma'limotlari asosida ishlandi
(2024 yil 1-yanvar)*

Yuroridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Lekin qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun ajratilgan yerlar yaroqsiz holatda kelib, sho'rlanish jadal sur'atlar bilan ortib bormoqda. [3]

Viloyatimizning katta qismi ya'ni Surxon-Sherobod vodiysidan boshqa qismi asosan tog'liklardan iboratdir. Viloyat hududidagi tog'lar shimol tomondan keladigan sovuq havo massasini to'sib qolganligi sababli Respublikamizning subtropik o'lkasi hisoblanadi. Viloyatda janubdan issiq quruq "afg'on shamoli" esib ekinlarni jiddiy zararlaydi. Surxondaryo viloyati ziroatchiligida bu omil hisobga olinadi.

Yer va suv resurslardan oqilona foydalanish masalasi, ayniqsa so'nggi yillarda ko'p muhokama bo'lmoqda. Bularning barchasida asosan ikki maqsad, ya'ni yer va suvdan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish ko'zda tutuladi

Viloyatimiz tabiatini ko'rkam va go'zal, o'simlik va hayvonot olamini yaxshi saqlash ona yurtimiz go'zalligi va boyligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham mavjud o'simliklar olamini, ayniqsa dorivor, shifobaxsh o'simliklarni barchamiz ko'z qorachig'idek asrashimiz zarur. O'simliklardan xalq xo'jaligida va xalq tabobatida foydalanishni qat'iy tartibga solish, foydalanishni tartibga solish, foydali qazilmalar va minerallarni qazib olishda ulardan atrof muhitni zararlantirmasdan faoliyat olib borish, har xil zaharli birikmalar va chiqindilarning tuproq, suv va havoni ifloslantirishda oldini olish o'ta zarur va dolzarbdir.

Xulosa. Surxondaryo viloyati flora va fauna boyliklari, shuningdek, yer-agroiqlim resurslari bilan O'zbekistonning ekologik va qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri sanaladi. Viloyat hududida tarqalgan o'simlik va

hayvonot turlari xilma-xilligi, qimmatli dorivor, yem-xashakbop va manzarali turlarning ko‘pligi hududning biologik resurslarga boy ekanidan dalolat beradi. Ayniqsa, “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik va hayvonlar sonining ko‘pligi ularni muhofaza qilishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shu bois, viloyatning organik dunyosini asrash, biologik xilma-xillikni tiklash, yer va suv resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir. Davlat tomonidan qabul qilingan ekologik qonunlar, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha dasturlar va xalqaro konvensiyalarning amaliyotga joriy etilishi Surxondaryo viloyati tabiiy resurslarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Surxondaryoning tabiiy-ekologik boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va qishloq xo‘jaligini ekologik jihatdan barqaror asosda rivojlantirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Зокиров Х.Х. Сурхондарё табиати ва экологияси”. Термиз -2021
2. Зокиров Х.Х. “Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш” Дарслик. Сурхон-нашр-2020
3. Зокиров Х.Х., Қўлдошева Ш.А. “ Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш”. –Тошкент, “YANGI NASHR” 2011
4. Umarova M.H. Abdunazarov H.M. Surxondaryo viloyati tabiiy resurslari. Termiz-2022
5. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. – Тошкент . 1996
6. P.Baratov O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent o‘qituvchi 1996, 262 b.
7. Ashurov J.S. (2024). CHO‘LLARDAGI SAMUM, KUY VA SAROB. Экономика и социум, (4-1 (119)), 65-70.
8. Ashurov Jumanazar Q. A. Allanov. "Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyotida suv resurslarining tutgan o‘rni" Молодые ученые 1.2 (2023): 73-75.